

## **“JAZONI O’TAGAN XOTIN – QIZLARNI IJTIMOIIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH**

D .A. Shodieva,

TDYuI

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat bosh islohotchi sifatida hal qiluvchi vazifalarni bajaradi, ya’ni keng qamrovli islohotlar uchun ququqiy asoslarni ta’minlash, mustahkam va barqaror mikroiqtisodiy vaziyatni saqlash, moliyaviy tashkilotlarning bir maromda ishlashini ta’minlash, ijtimoiy xususiyatga ega bo’lgan sohalarga mablag’ ajratish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj katlamlari uchun yordamni amalga oshirish siyosatini hayotga izchil joriy etadi. Jamiyat hayotining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini ta’minlash; siyosiy institutlarning samarali faoliyatini yo’lga qo’yish; hokimiyatni suiste’mol qilishning, jususan korruptsiyaning oldini olish; davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish; qonunchilik va normativ mexanizmlarni takomillashtirish; sud hokimiyatini mustahqamlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirish ham davlatning faoliyat yo’nalishlari bo’lib, bu ijtimoiy adolat tizimini barpo etish va mustahkamlash uchun asos bo’ladi. Davlatning kuchli ijtimoiy siyosat yuritishi ham ijtimoiy adolat qoidalari bilan mustahkam bog’liqdir. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida "Davlat o’z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko’zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi", deb belgilanganligi inson va insonlarning farovon hayot kechirishlarida qabul qilingan qonunlar va dasturlar bo’yicha ijtimoiy-iqtisodiy qurilish borasida bosqichma-bosqich hamda izchillik bilan amalga oshirilib inson oliy qadriyat sifatida baholanayotganligini e’tirof etishimiz lozim.

O’zbekiston mustaqillikka erishgach, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishga kirishdi. Bu vazifalarni bajarish aholining yarmidan ortig’ini tashkil etgan ayollarning ”jamiyatdagi o’rni va mavqeini yanada oshirish, xotin qizlarning izzat – hurmatini joyiga qo’yish, ularning og’irini yengil qilish –

davlatimiz va hukumatimizning, joylardagi hokimliklarning, keng jamoatchilikning asosiy vazifasiga” aylandi. Zero, dekmokratik islohotlar muvaffaqiyati, asosan, ularda ayollar qanchalik darajada ishtirok etishiga bog’liq.

Ma’lumki, birinchidan, jamiyatdagi har qanday o’zgarishi, eng avvalo, oila va ayol hayotiga ta’sir etadi, shu bois, ayollarimiz jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalarni ongli tahlil qila oladigan, o’tish davriga xos bo’lgan qiyinchiliklarni yenga oladigan, iqtisodda raqobatbardosh, ma’naviyati, huquqiy madaniyati yuksak, oilaparvar, tadbirkor, rejali bo’lishi talab etiladi. Shuning uchun ayollar faolligini oshiruvchi omillarni aniqlab, ularni hayotga tatbiq etish hozirgi davr talabidir.

Ikkinchidan, Xalqaro tashkilotlar tomonidan ayollar faolligini oshirish, ularga nisbatan kamsitishlarning har qanday ko’rinishiga, shu jumladan, buguni kunda ba’zi bir oilaviy munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolarga barham berish borasida turli xil qonunlarning qabul qilinishi va konventsiyaning ishlab chiqilganligi hada ushbu mavzuga doir turli xil xalqaro miqyosdagi tadbirlarning muntazam o’tkazilishining o’ziyoq ayollar faolligini oshirish qanchalik dolzarb ekanligini anglatadi.

Uchinchidan, O’zbekiston mustaqillikka erishganidan so’ng BMT ning teng huquqli a’zosi sifatida MDH davlatlari orasida birinchilardan bo’lib, bu xalqaro hujjatlarni e’tirof etdi va o’z zimmasiga xotin-qizlarga nisbatan kamsitish siyosatini o’tkazmaslik vazifasini oldi hamda xotin-qizlarning faolligini oshiruvchi tadbirlarni belgiladi: 1995 yil 2 martda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi davlat va jamiyat qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora – tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni chiqdi. 1998 yil “Oila yili”, 1999 yil “Ayollar yili” deb e’lon qilindi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi “O’zbekiston xotin-qizlar qo’mitasi faoliyatini qo’llab-quvvatlash borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi Farmoni va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu Farmonning ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risidagi 2004 yil 30 iyunda qabul qilingan qarori va boshqa bir qator me’yoriy hujjatlar xotin-qizlarning obro’-e’tiborini oshirish va mustahkamlash,

ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, oila, mahalla, qishloq va ovullarda diniy, ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchilar tayinlash respublikamizda yashayotgan dinidan, irqidan, millatidan qat'iy nazar barcha xotin-qizlarni faolligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Inson manfaatlarini himoyalashga asoslangan Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda ustuvor ahamiyatga ega ekanligi ma'lumdir. Ijtimoiy himoya tizimining muhim yo'nalishlaridan biri jazoni o'tab bo'lgan xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga moslashtirishdan iboratdir. Mazkur ijtimoiy guruh vakillari bilan ijtimoiy ishni tashkil etishning o'ziga xosliklarini va bunda ijtimoiy ish xodimining asosiy maqsadi ularni qayta bunday qonunga zid bo'lgan qonun buzarluk ishlarni qilmasliga, oilasi va jamiyat uchun kerak inson ekanligini ularning ongiga singdirishdan iborat. Bugungi kunda jazo muddatini o'tash muassasalaridan chiqqan ayollarni ishga joylashtirish ular o'rtasida muntazam tibbiy, xuquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy mavzularda turkum seminar va suhbatlar olib borib turish kerak. O'zbekistonda bir necha yildan buyon O'zbekistonning barqarorligiga xavf soluvchi jinoyat sodir etmagan ko'pgina maqbuslarni jazo o'tashdan ozod qilish ularni kechirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan chiqarilayotgan Farmon va qarorlar xamda ularni ijtimoiy hayotga qaytarish to'g'risida olib borayotgan siyosatining negizida ham inson parvarlik va bag'ri kenglik tamoyili yotadi. Jazo muddatini o'tagan xotin-qizlarning sodir etgan jinoyat ishlarini sotsiologik analiz qilib nima sababdan bunday jinoyat ishlarini sodir etganligi ilmiy tahlil qilish lozim. Ularning qayta bunday ishlar bilan shug'ullanmasliklari uchun ijtimoiy ish xodimlari doimiy ravishda ular bilan muloqotda bo'lishlari lozim.